

Navoiy davlat pedagogika instituti Kengashining
2023-2024-o'quv yilidagi 12-son yig'ilishi bayonnomasidan
KO'CHIRMA

2024-yil 30-may

Navoiy shahri

Rais – B.Sobirov

Kotib – U.Utamuradov

Qatnashdilar: Institut Kengashining 57 nafar a'zosi dan 46 nafari. Bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlari.

KUN TARTIBI:

4. Turli masalalar.

4.14. Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasiga nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqish to'g'risida.

ESHITILDI: Kengash kotibi U.Utamuradov

Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasiga nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqish to'g'risidagi masala yuzasidan San'atshunoslik fakulteti dekani O.Raximovning axboroti eshitildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini ta'xis etish to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabrdagi 691-son qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-maydagi 2/10-4/1-4137-sonli xatiga asosan stipendiyaga quyidagi nomzodlar:

- Rangtasvir (dastgohli) yo'nalishi talabasi G'afforova Dilnura Narzullo qizi;
- Rangtasvir (dastgohli) yo'nalishi talabasi Oripova Malika Abdutolib qizi;
- Dizayn (Libos va gazlamalar) yo'nalishi talabasi Sayfiyeva Ozoda Madamin qizi;
- Dizayn (Libos va gazlamalar) yo'nalishi talabasi Ergashova Marjonoy Bozor qizining hujjatlari qabul qilib olinganligini bildirdi.

Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasiga talabgorlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar joriy yilning 15-iyuniga qadar Nizom talablari va baholash mezonlariga qat'iy rioya qilgan holda ko'rib chiqilishi, 25-iyunga qadar institut kengashi qarori, nomzodlar hamda ularning erishgan yutuqlari haqidagi ma'lumotlar institut veb-saytida e'lon qilish va Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasiga tavsiya etish to'g'risida Kengash qaroriga asosan talabgorlarning hujjatlarini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish vazifasi belgilanganligini aytib o'tdi.

KENGASH RAISI: Kun tartibidagi masala yuzasidan takliflar so'raldi.

SO'ZGA CHIQDI: A.Abdullayev

Nomzodlarning hujjatlari kafedrada mutaxassislar tomonidan ko'rib chiqilganligini bildirib, qaror loyihasini ovozga qo'yish taklifini kiritdi.

Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasiga nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqish to'g'risidagi masala yuzasidan qaror loyihasi tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi.

Qarshilar yo'q. Betaraflar yo'q.

Ochiq ovoz berish natijalariga asosan institut Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini ta'sis etish to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabrdagi 691-son qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-maydagi 2/10-4/1-4137-sonli xati ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasiga quyidagilar:

- Rangtasvir (dastgohli) yo'nalishi talabasi G'afforova Dilnura Narzullo qizi;
- Rangtasvir (dastgohli) yo'nalishi talabasi Oripova Malika Abdulolib qizi;
- Dizayn (Libos va gazlamalar) yo'nalishi talabasi Sayfiyeva Ozoda Madamin qizi;
- Dizayn (Libos va gazlamalar) yo'nalishi talabasi Ergashova Marjonoy Bozor qizining nomzodlari tasdiqlansin.

3. Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasiga talabgorlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar joriy yilning 15-iyuniga qadar Nizom talablari va baholash mezonlariga qat'iy rioya qilgan holda ko'rib chiqilsin.

4. San'atshunoslik fakulteti dekani O.Raximov va Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi rahbari Sh.Tursunov 2024-yil 25-iyunga qadar institut kengashi qarori, nomzodlar hamda ularning erishgan yutuqlari haqidagi ma'lumotlar institut veb-saytida e'lon qilsin.

5. Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasiga tavsiya etish to'g'risida Kengash qaroriga asosan talabgorlarning hujjatlarini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish vazifasi San'atshunoslik fakulteti dekani O.Raximov zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini ta'minlanishini nazorat qilish ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor D.Narzikulova zimmasiga yuklatilsin.

Kengash kotibi



U.M. Utamuradov